

O'ZBEKISTON MUZEYLARIDA NAMOYISH ETILGAN XALQ RASSOMLARI IJODI

Abdusalomova Hilola Orifjon qizi

*Kamolliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Tasviriy san'at
fakulteti "Mahobatli rangtasvir" kafedrası 3-bosqich talabasi*

Annotasiya: Maqolada O'zbekiston muzeylarida saqlanayotgan va ko'rgazmalarda namoyish etilayotgan xalq rassomlari asarlari va ularning ijodi o'rganiladi. Xalq rassomlarining ijodi orqali milliy badiiy merosning boyligi, tasviriy san'atda shakllangan an'analar hamda ularning davomiyligi ochib beriladi. Shuningdek, muzey ekspozitsiyalari orqali bu ijod namunalarning keng jamoatchilikka yetkazilishi, san'atga qiziqishni oshirishdagi o'rni ham tahlil qilinadi. Maqola xalq rassomlari ijodining hozirgi davrdagi qadri va yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston muzeylari, xalq rassomlari, tasviriy san'at, muzey ekspozitsiyasi, ko'rgazma.

Kirish

O'zbekiston tasviriy san'ati uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, xalq ijodiyoti, urf-odatlar va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Ayniqsa, xalq rassomlarining ijodi bugungi kunda san'atimiz rivojiga katta hissa qo'shgan, milliy badiiy tafakkurni yuksak darajada ifodalagan muhim meros sifatida e'tirof etiladi. Ushbu asarlar nafaqat o'z davrining ruhini aks ettiradi, balki bugungi kunda ham estetik va tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan.

Mamlakatimiz muzeylarida xalq rassomlariga oid asarlarning namoyish etilishi orqali ularning san'atga bo'lgan yondashuvi, mavzu tanlovi va uslubiy izlanishlarini yaqindan kuzatish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, bu ekspozitsiyalar yosh avlodni milliy san'atga mehr uyg'otishda va badiiy didini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Asosiy qism

Nabiyev Malik 1916 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan va 2008 yilda vafot etgan. Rangtasvirchi rassom, pedagog. Badiiy O'zbekiston akademiyasining akademigi, O'zbekiston xalq rassomi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. Nabiyev Malik tasviriy san'atning ilk saboqlarini rassom Baxrom Hamdamiydan o'rgangan[1].

Bahrom Hamdamiy avtoportreti. 1940



Murabbiy musavvir nomi bilan el-yurtta tanilgan, hurmat qozongan Malik Nabiyev asarlari soni mingdan ortiq. Yaratgan asarlarida xalqimizning navqiron avlodi – bolalar, yoshlar, o'smirlar, shuningdek, keksalar aks etgan. Ularning negizida chin insoniylik, axloq-odob, mehnat tasvirini namoyon qilish.

niyati yotadi. Har bir asar chizgilaridan tortib, ranglarigacha yoqimli qilib ishlangan. Ular tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Mavzu, mohiyati maktab, o'quv yurti fanlari: tarix, adabiyot, tibbiyot, tabiat, jug'rofiya, astronomiya, odam anatomiyasi kabi fanlar bilan bog'liq bo'lib, yoshlarni ilm olishiga ko'mak beradi. Shu sababli, ko'pgina darsliklarda musavvir asarlarining fotoreproduksiyalari uchraydi[2]. O'zbek tasviriy san'ati tarixida Malik Nabiyeu yaratgan asarlardan: buyuk allomalarimiz "Al-Beruniy", "Al-Xorazmiy", "Ibn Sino", "Ar-Roziy", "Ahmad Farg'oniy", "Muqanna qo'zg'oloni", "Spitamen qo'zg'oloni" kartinalari va boshqa o'nlab yetuk asarlarni sanab o'tish mumkin. Respublikamiz va dunyo muzeylarida musavvir ijodidan namunalar muntazam namoyish etib kelinmoqda.

Tasviriy san'atda tarixiy shaxslar obrazini Malik Nabiyeu ijodisiz to'liq tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, sohibqiron Amir Temur obraziga rassomning murojaat qilishi sabablari xususida to'xtalish joizdir[3,4].

Ellik yildan ortiq vaqt ichida Amir Temur obrazini har tomonlama o'rganish uchun olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari haqida so'zlab berishlarini so'rashganda rassom Malik Nabiyeu shunday fikrlarni bayon qilgan edi: "Shu davr ichida Amir Temur haqida ko'plab asarlar bilan tanishdim. Mavjud miniatyuralarni, qaerda bo'lmasin, imkoniyat darajasida



qidirib topdim. Men Hindistonning Kalkutta, Bombay shaharlaridagi muzeylarda, Eronning Tehron, Isfahon, Turkiyaning Istanbul, Izmir va boshqa shaharlarda, Angliyaning mashhur Britaniya muzeyida, Fransiya, Ispaniya kabi mamlakatlar muzeylarida saqlanayotgan miniatyuralarning asl nusxalarini ko'rishga muvaffaq bo'ldim. Xullas, Amir Temur siymosini yaratish uchun bir emas, bir necha miniatyura maktabini o'rganib chiqdim. Tarixiy asarlarni yaratishda avvalo men bobolar ruhidan madad so'rayman, ana shu narsa menga doimo dalda berib turadi..." Haqiqatan ham rassom bu portret asarini yaratish borasida astoydil izlanishlar olib borgan, yutuqqa yuksak mahorati, moyqalamining kuchi tufayli erishgan. Hozirda bu asar Temuriylar tarixi davlat muzeyida saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shomurodov, O.N. Tasviriy san'at tarixi (portret, manzara, natyurmort, animalistik, batal janrlari) [Mant]: o'quv qo'llanma / O.N. Shomurodov. Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durдона, 2021.-140 b.



2.Аҳмедов М.Малик Набиев ҳаёти ва ижоди. Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 2000. – 56 6.

3.Jabbarov R., & Rasulov M. (2021).Further formation of students'creative abilities by drawing landscapes in painting. Збірникнауковихпраць ЛОГОΣ.
<https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>.

4.Khalimov M., & Soliddinova S. (2021). The knowledge gained by students in engineering graphics and its transformation to experience and skill. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(1), 260-264. Article DOI: <http://dx.doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00040.9>.

